


VII. KORXONALAR VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash haqida” gi 274- son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxona va tashkilotlarning yillar kesimida soni (1- oktabr holatiga ko'ra,birlikda) (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)




Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka yega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga yega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, (2022- yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o‘tgan yilga nisbatan o‘sish surati, savdo (119,5 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (115,8 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (115,6 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (108,8 %), tashish va saqlash (107,9 %), qurilish (107,5 %), sanoat (107,3 %), boshqa turdagи xizmatlar (105,5 %) va axborot va aloqa (93,2 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.




Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko‘ra, ming birlikda va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati bilan)



Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra 51 310 tani tashkil yetib, o‘tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4 004 taga yoki 108,5 % ga o‘sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 32,8 % savdo, 21,0 % sanoat, 7,5 % qurilish, 5,6 % yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 4,6 % qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 3,5 % tashish va saqlash, 2,2 % axborot va aloqa, 2,4 % sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va 20,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2022- yil 1-oktabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning hududlar kesimida soni va o‘sish surʼati, %

(dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz, birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



2022- yil 1- iyul holatiga 45 123 ta faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar soni, shundan xususiy korxona - 11 685 ta, oilaviy korxona - 6 471 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyat - 26 229 ta, aksiyadorlik jamiyat - 53 ta, unitar korxona - 248 ta va boshqa turdag'i korxonalar - 437 tani tashkil etadi.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra 27,5 mingtani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4,2 mingtaga yoki 117,8 %ga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 26,2 mingtani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 mingtaga yoki 115,3%ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4333 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 67 taga yoki 98,5%ga kamayganni ko‘rish mumkin.



Yangi tashkil yetilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (yanvar-sentabr oylarida)




2022- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (14,2 %), Qo'qon shahar (9,5 %), Marg'ilon shahar (6,3 %), Toshloq tumani (6,0 %), Dang'ara tumani (5,4 %), Beshariq tumani (5,1 %), Oltiariq tumani (5,1 %), Buvayda tumani (5,1 %), O'zbekiston tumani (5,1 %), Rishton tumani (4,6 %), Quva tumani (4,4 %), Bag'dod tumani (4,3 %), Uchko'prik tumani (4,2 %), Farg'ona tumani (4,1 %), Qo'shtepa tumani (4,1 %), Quvasoy shahar (3,9 %), Furqat tumani (3,0 %), Yozyovon tumani (2,8 %), So'x tumani (2,8 %), hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlik)



Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, birlikda)




Hududlar bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2022- yil 1- oktabr holatiga ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 588 tani tashkil etdi, bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 61 taga yoki 111,6 %ga o‘sgan.



Xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni



**Hududlar kesimida jami faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalarining qo‘shma korxona va xorijiy korxonalarga
taqsimlanishi (2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)**



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari
kesimida taqsimlanishi**
(1- oktabr holatiga ko‘ra, yillar kesimida, birlikda)

	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Jami	254	387	431	516	573
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	6	25	26	27	28
Sanoat	172	229	248	279	298
Qurilish	7	9	12	24	33
Savdo	32	68	75	106	121
Tashish va saqlash	6	9	13	13	15
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	11	13	15	16	17
Axborot va aloqa	2	4	4	4	6
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	5	8	8	9	10
Boshqa turlar	13	22	30	38	45

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimida soni
(2022- yil 1-oktabr holatiga, birlikda)


	Ro‘yxatga olinganlar	2022- yil yanvar-sentabr		
		yangi tashkil etilgan	tugatilgan	
Viloyat bo‘yicha	588	51	2	
<i>shaharlar:</i>				
Farg‘ona	185	18	2	
Qo‘qon	78	7		
Quvasoy	35	1		
Marg‘ilon	30	2		
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	28	3		
Qo‘shtepa	10	1		
Bag‘dod	16	1		
Buvayda	12			
Beshariq	11	1		
Quva	23	1		
Uchko‘prik	24	1		
Rishton	13	1		
So‘x	7			
Toshloq	19			
O‘zbekiston	29	4		
Farg‘ona	27	3		
Dang‘ara	22	3		
Furqat	12	2		
Yozyovon	7	2		

Oilaviy korxonalar


Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1-oktabr holatiga 6 945 tani tashkil etib, ulardan 6 471 tasi yoki 93,2 % faoliyat yuritmoqda.

Oilaviy korxonalarining yillar kesimidagi soni

(birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, *(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)*



Oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(birlikda)

	<i>Ro‘yxatga olinganlar</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>	
		<i>yangi tashkil etilgan</i>	<i>tugatilgan</i>
Viloyat bo‘yicha	6 945	1 055	150
<i>shaharlar:</i>			
Farg‘ona	694	84	12
Qo‘qon	491	85	6
Quvasoy	317	61	12
Marg‘ilon	477	38	8
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	581	89	20
Qo‘shtepa	184	19	5
Bag‘dod	367	36	9
Buvayda	332	19	5
Beshariq	310	34	3
Quva	254	23	4
Uchko‘prik	343	26	7
Rishton	680	125	17
So‘x	119	31	8
Toshloq	267	46	3
O‘zbekiston	462	99	4
Farg‘ona	248	37	9
Dang‘ara	437	147	6
Furqat	301	39	1
Yozyovon	81	17	11